O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYAT
NAVBAHOR TUMANI HOKIMINING

QARORI

210200, Navbahor t., Bobursho‌h k 4, tel: (79) 562-15-82, 562-11-84, 562-14-76,
e-mail: navbahor@nv.uz, info@navbahor.uz

2022 - yil 6 - oktabr 200-5-73-Q/22 Navbahor tuman hokimligi

Navbahor tumanida mavjud avtomobil yo‘llariga yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1.Navbahor tumanida mavjud avtomobil yo‘llariga ilovaga muvofiq yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

2. Tuman “Yo‘llardan foydalanish” UK (D.Pirnazarov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (Z.Qudratov)ga tumanda mavjud avtomobil yo‘llariga ilovaga muvofiq yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

4. Tuman IIB YHXB (O`.Xalimov)ga mazkur yo‘l belgisi o‘rnatilishini hamda tuman hududida transport vositalari harakatini tartibga solinishini nazorat qilib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qaror “Navbahor tongi” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Xudoyqulov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.O`roqov**

Navbahor tuman hokimining
2022 yil 6 oktabrdagi
200-5-73-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tumanda mavjud avtobil yo‘llarga o‘rnatiladigan yo‘l belgilari bo‘yicha

MA’LUMOT

T/r	Ko‘cha nomi	Joylashtirish joyi	Yo‘l belgisi nomi
1	Markaziy Beshrabot	4R48 avtomobil yo’lining 192 km PK6 o‘ng tomon	3.27—300 metrgacha to‘xtash taqiqlangan
2	Markaziy Beshrabot	4R48 avtomobil yo’lining 192 km PK9 chap tomon	3.27—300 metrgacha to‘xtash taqiqlangan
3	Markaziy Beshrabot	4R230 avtomobil yo’lining 5 km PK8 o‘ng tomon	3.27—200 metrgacha to‘xtash taqiqlangan
4	Jaloliddin Manguberdi	4R230 avtomobil yo’lining 6 km PK00 chap tomon	3.27—200 metrgacha to‘xtash taqiqlangan
5	“Yaltirabot” MFY	4R48 avtomobil yo‘lining 159-160 km chap va o’ng tomon	3.24 (50 km/soat) 2 dona
6	“Qizilrabot” MFY	4R48 avtomobil yo‘lining 162-163 km chap va o’ng tomon	3.24 (50, 30 km/soat) 4 dona
7	“Qiziltepa” MFY	4R48 avtomobil yo‘lining 164-165 km chap va o’ng tomon	3.24 (50, 30 km/soat) 4 dona

8	“Yosh kuch” MFY	4R48 avtomobil yo‘lining 173-174 km chap va o’ng tomon	3.24 (50, 30 km/soat) 4 dona
9	“Uch tut” MFY	4R48 avtomobil yo‘lining 176-177 km chap va o’ng tomon	3.24 (50, 30 km/soat) 4 dona
10	“Toshrabot” MFY	4R48 avtomobil yo‘lining 182-183 km chap va o’ng tomon	3.24 (50, 30 km/soat) 4 dona
11	“Mirzo Ulug’bek” MFY	4R48 avtomobil yo‘lining 184-185 km chap va o’ng tomon	3.24 (50, 30 km/soat) 4 dona
12	“O’zbekiston” MFY	4R48 avtomobil yo‘lining 186-187 km chap va o’ng tomon	3.24 (50, 30 km/soat) 4 dona
13	“Navbahor” MFY	4R48 avtomobil yo‘lining 188-189 km chap va o’ng tomon	3.24 (50, 30 km/soat) 4 dona
14	“Yuqori Beshrabot” MFY	4R48 avtomobil yo‘lining 191-192 km chap va o’ng tomon	3.24 (50, 30 km/soat) 4 dona
15	“Yangi obod” MFY	4R48 avtomobil yo‘lining 194-195 km chap va o’ng tomon	3.24 (50, 30 km/soat) 4 dona
16	“Qiziloy” MFY	4R48 avtomobil yo‘lining 198-199 km chap va o’ng tomon	3.24 (50, 30 km/soat) 4 dona
17	“Yangi hayot” MFY	4R48 avtomobil yo‘lining 200-201 km chap va o’ng tomon	3.24 (50, 30 km/soat) 4 dona
18	“Oq-oltin” MFY	4N363 avtomobil yo‘lining 7-8 km chap va o’ng tomon	3.24 (50, 30 km/soat) 4 dona
19	“Dul-dul” MFY	4R63 avtomobil yo‘lining 81-82 km chap va o’ng tomon	3.24 (50 km/soat) 2 dona
20	“Armijon” MFY	4R63 avtomobil yo‘lining 83-84 km chap va o’ng tomon	3.24 (50 km/soat) 2 dona
21	“Saroy” MFY	4R63 avtomobil yo‘lining 90-91 km chap va o’ng tomon	3.24 (50 km/soat) 2 dona